

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA NASIBA RAXMATULLAYEVNA**

**AUTSORSING XIZMATLARI SAMARADORLIGI VA SIFATINI  
OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**SAMARQAND – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора (DSc) экономических наук**

**Content of dissertation abstract of doctor (DSc) in economic sciences**

**Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna**

Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirish.....3

**Эргашева Насиба Рахматуллаевна**

Совершенствование методологии повышения эффективности и качества услуг аутсорсинга.....35

**Ergasheva Nasiba Rakhmatullaevna**

Improving the methodology for increasing the efficiency and quality of outsourcing services .....69

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....74

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA NASIBA RAXMATULLAYEVNA**

**AUTSORSING XIZMATLARI SAMARADORLIGI VA SIFATINI  
OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**SAMARQAND – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Iqt771 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.sies.uz](http://www.sies.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Matyakubov Umidjon Rahimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz Davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi 9-uy. Tel.: (+99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahr Amir Temur ko'chasi 9 uy. Tel.: (+99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**M.T.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiy makonida autsorsing va keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida xizmat ko‘rsatish bozori segmentlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyotga davlat aralashuvini minimallashtirishning asosiy yo‘llaridan biri maktabgacha ta’lim tashkilotlarini keytering va autsorsing xizmat turlari bilan ta’minlash hisoblanadi. “Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashtirish, axborotlashuv tendensiyalari sharoitida davlat va nodavlat sektorining 50-60 foiz uzoq muddatli shartnomalari tashqi resurslarni jalb etishni nazarda tutuvchi autsorsing xizmatlari orqali amalga oshiriladi. 2021-yilda IT sohasida dunyo keytering va autsorsing xizmatlari bozori hajmi 414 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda esa qariyb 1 trln. AQSh dollariga yetdi. Jumladan, XXR autsorsing xizmatlari bozori 362 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan holda, 2021-yilga nisbatan 14,2 foizga oshdi”<sup>1</sup>. Hozirda davlat sektori vazifa va majburiyatlarini autsorsing xizmatlari asosida tashkil etishning nisbatan qulay va samarali mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda milliy va xalqaro miqyosdagi samarali va raqobatbardosh iqtisodiy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yishda ijtimoiy autsorsing asosida rivojlantirish yo‘llari va istiqbollari yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Autsorsing xizmatlari sektori global iqtisodiy makonda keng miqyosda va dinamik faoliyat yuritib kelmoqda. Uning rivojlanishi korxonalar va tashkilot (kompaniya)ning raqobatbardoshligiga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida foydalaniladigan barcha tashkiliy tizimlarning samaradorligi darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Autsorsing xizmatlaridan samarali foydalanish korxonalariga asosiy bo‘lmagan funksiyalar va korporativ rollarni ixtisoslashtirilgan autsorsing kompaniyalariga o‘tkazish va faoliyatning asosiy mavzusiga sa’y-harakatlarni jamlash orqali o‘z faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytering va autsorsingni tashkil etishning zamonaviy shakllari, dunyo keytering va autsorsing xizmatlari bozori va uning geografiasidagi asosiy tendensiyalar, keytering va autsorsingni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning metodologik va konseptual asoslari kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda taraqqiyotning hozirgi bosqichida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini to‘liq xususiy sektorga o‘tkazish orqali ularning sifati va samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini

---

<sup>1</sup> Manba. Беленькая Я.И. Развитие аутсорсинга в мировой экономике. <https://core.ac.uk/download/pdf/>.

yanada to'laroq qondirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "...maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olish samaradorligini yanada oshirish, DXSh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini keng joriy etish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish"<sup>2</sup> ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonda keytering va outsorsing xizmatlarining rivojlanishi maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish<sup>3</sup>, sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tibbiy buyumlarni zararsizlantirish, tibbiy tashxislar, global raqamli ekotizim, biznes jarayonlari outsorsingi sohasini jadal rivojlantirish o'ta dolzarb va muhim vazifalardan deb qaralmoqda. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirish keytering va outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash yo'llarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilab beradi.

Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 10-yanvardagi 6-son "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2025-yil 16-yanvardagi 1-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va nizomlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>3</sup> [https://bugun.uz/2022/09/22/O'zbekiston bogchalarining outsorsing usuliga otishda jiddiy kamchiliklar aniqlandi](https://bugun.uz/2022/09/22/O'zbekiston%20bogchalarining%20outsorsing%20usuliga%20otishda%20jiddiy%20kamchiliklar%20aniqlandi)

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”ga doir ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.** Dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi natijasida keytering va outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi mamlakatlari ilmiy-tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida, jumladan, Regional Economic Development Institute (REDI), Peterson Institute for International Economics, The University of Chicago, The United Nations Commission on Sustainable Development (UN CSD), Harvard University, The University of Oxford, United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (Shveysariya), Control Risks Group (CRG) (Singapur), Montpellier Business School (Fransiya), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Biznes va tadbirkorlik ma’urchiligi (Институт бизнеса и делового администрирования (ИБДА)), Sanoat siyosati va institutsional rivojlanish instituti (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Dunyoda keytering va outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar asosida bir qator natijalarga erishildi. Jumladan, keytering xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirish orqali xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatining xavfsizligini, aholining turmush darajasi sifatini va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari asoslab berildi (Organization for Economic Cooperation and Development); outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini baholashni aniqlash usullari ishlab chiqildi (World Intellectual Property Organization (Shveysariya)); outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatishning asosiy tarmoqlari faoliyatini rivojlantirishni moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqildi (outsorsing va keytering siyosati va institutsional rivojlanish instituti (Rossiya)); iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni jadallashtirish maqsadida outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini aniqlash va rivojlantirish istiqbollari o‘rganildi (Iqtisodiy tadqiqotlar markazi (O‘zbekiston)); iqtisodiyotning yetakchi sanoat tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, ularni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini aniqlashda xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish evaziga ularning

---

<sup>4</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.weforum.org>; [www.harvard.edu](http://www.harvard.edu); <https://www.piie.com>; <https://www.uchicago.edu>; <http://unctad.org>; <https://www.controlrisks.com>; <http://www.eiu.com>; <https://www.montpellier-bs.com>; <https://sustainabledevelopment.un.org>; [www.ox.ac.uk](http://www.ox.ac.uk); <https://www.tdiu.uz>; <https://www.ifmr.uz> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

raqobatbardoshligini oshirish o'rganildi (Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston).

Jahon ilmiy hamjamiyatida outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini ta'minlash uslubiyatini takomillashtirishga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan keytering va outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini baholashning joriy etilishiga alohida e'tibor qaratildi; investitsion va innovatsion jarayonlarni samarali joriy etishning xizmat ko'rsatish tarmog'ida keytering va outsorsing xizmatlarining xavfsizligini ta'minlashga ta'siri o'rganilmoqda; keytering va outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligi faoliyatini rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vositalari rivojlantirilmoqda; tabiiy muhit holatini e'tiborga olgan holda outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini majmuaviy foydalanish orqali keytering va outsorsing xizmatlarining sifat va samaradorligini ta'minlash uslubiyatini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Keytering va outsorsing xizmatlarini rivojlantirish va outsorsingga asoslangan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning umumiy va ayrim masalalari xorijlik, MDH olimlaridan D.Komissarov, B.A.Anikin, S.O.Kalendjyan, J.B.Xeyvud, D.M.Mixaylov, S.Pushkin, S.Sayfiyeva, L.A.Vasilenko, O.Melnik va boshqa mualliflarning ishlarida o'rganilgan<sup>5</sup>.

O'zbekistonda tadbirkorlik, xizmatlar sohalarini modellashtirish, jumladan, outsorsing xizmatlarini rivojlantirish, keytering va outsorsing xarajatlarini muvofiqlashtirishning ayrim nazariy-amaliy hamda uslubiy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardayev, J.M.Qurbonov, E.S.Fayziyev, X.Abulqosimov, T.M.Ziyayev, M.H.Saidov, I.I.Nazriyev, Z.T.Tohirov, Q.O.Otajanov, B.N.Navruz-Zoda kabilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan<sup>6</sup>.

---

<sup>5</sup> Комиссаров Д. Привыкание к аутсорсингу [Электронный ресурс] / Режим доступа: [3362108](#). Аникин, Б.А. Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций / Б.А.Аникин. — М.: Инфра-М, 2007. - 184 с.; Календжян, С.О. Аутсорсинг и делегирование полномочий в деятельности компаний — М.: Дело, 2003. С.16; Хейвуд, Дж. Брайан Аутсорсинг: в поисках конкурентных преимуществ / пер. с англ. Н.Е.Метоль, И.С.Половицы. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. – С. 40.; Михайлов, Д.М. Аутсорсинг. Новая система организации бизнеса: учебное пособие / Д.М.Михайлов. – М.: КНОРУС, 2006. – 256 с.; Пушкин С. Что такое аутсорсинг? [Электронный ресурс] М.Савостьянов. – Режим доступа: <http://www.klerk.ru/boss/articles/4659>; Сайфиева С. Аутсорсинг в свете экономической теории // Вестник Государственного ун-та управления. Серия «Развитие отраслевого и регионального управления». - 2007. - № 3. – С. 175-180; Василенко Л.А. Аутсорсинг – инновационная кадровая технология государственной службы / Л.А.Василенко. – СПб: Наука, 2007. – 216 с.; Мельник, О. Аутсорсинг: от мечты к реальности [Электрон.ресурс] / О.Мельник. – 2010. – Режим доступа: [http://www.crn.ru/numbers/spec\\_numbers/detail.php?ID=31888](http://www.crn.ru/numbers/spec_numbers/detail.php?ID=31888)

<sup>6</sup> Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari. Monografiya – T.: «Navro'z» nashriyoti, 2014. – B. 11.; Qurbonov J.M. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish. Monografiya. – Samarqand, 2016. – B. 126.; Fayziyev E.S. Servis tizimi faoliyati asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Zarafshon, 2010. – B. 21.; Abulqosimov H. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – T.: Noshirlik yog'dusi. 2018. – B. 206; Saidov M.H, Nasriyev I.I., Tohirov Z.T., Ulug'ov Sh.X. Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'ati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 148; Ziyayev T.M, Isroilova Sh.T., Yoqubov D.T. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti – T.: “TDIU”, 2011. – B. 15.; Otajanov Q.O. Outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llari. 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –

Ushbu tadqiqot yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ishlarning aksariyati faqat outsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan bo‘lib, keytering shakli yetarlicha tadqiq qilinmasdan qolgan. Bu, asosan, outsorsingning ma’lum bir turidan foydalanish va u bilan bog‘liq muammolarga tegishli.

Keytering va outsorsing sohasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va to‘plangan amaliy tajribaga qaramay, keytering va outsorsing xizmatlari bozori sekin rivojlanmoqda. Ushbu masala bo‘yicha nashrlarning mavjudligi keytering va outsorsing xizmatlari bozorining shakllanishi va faoliyati nazariyasini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar bilan birga kelmaydi.

Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali keytering va outsorsing xizmatlarini amalga oshirish, ovqatlanish va kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirishda tanlov asosida jalb qilingan tashkilotlar, byudjet muassasalari, tijorat va notijorat tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni tashkil qilish, tashqi yetkazib beruvchilarni jalb qilish orqali cheklangan byudjet mablag‘larini tejash imkonini beruvchi outsorsing xizmatlaridan foydalanishning nazariy, uslubiy jihatlarini tadqiq etishning yetarlicha o‘rganilmaganligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’minlashning sifat jihatidan baholash mezonlari, outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini aniqlashning metodologik asoslari keytering va outsorsing xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari, keytering va outsorsingni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning konseptual asoslari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish zarurati dissertatsiya mavzusini tanlashda asos bo‘lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan ITD - 2 “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatni shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat ilmiy-texnika amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy hamda amaliy yo‘nalishdagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

keytering va outsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendlarni o‘rganishga bag‘ishlangan nazariy yondoshuvlarni ochib berish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini aniqlashning metodologik va metodik asoslarini ishlab chiqish;

---

Urganch, 2023, 61 b.; Navruz-Zoda B.N., Ergasheva N.R. Outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning metodologik yechimlarini takomillashtirish. // «Innovatsion iqtisodiyot» ilmiy-amaliy elektron jurnali. 3-jild 3-son, iyun, 2025. – B.154-159 // [ojs.qmii.uz/index.php/ej](https://ojs.qmii.uz/index.php/ej)

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash masalalarini o'rganish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni qo'llab-quvvatlash tizimini baholash usullarini aniqlash;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini tahlil etishning tizimli yondashuv uslubiyotini ishlab chiqish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning "K&AMEI" modelida baholash xususiyatlarini aniqlash;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini "Uch omil" metodologiyasi asosida takomillashtirish;

keytering va outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning "XaSaSi" modeli asosida iqtisodiy baholash uslubiyatini takomillashtirish;

outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning konseptual asoslarini takomillashtirish;

outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning istiqbollari ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qashqadaryo viloyatidagi outsorsing va keytering xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarga kiruvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, so'rov, statistik va ekonometrik modellashtirish, istiqbolli prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, outsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida "keytering" tushunchasining iqtisodiy mazmuni outsorsing xizmat ko'rsatishning innovatsion uslublarini diversifikatsiyalash orqali xarajatlarni minimallashtirish, samaradorlik va sifatni oshirishni ta'minlovchi ijobiy institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usullarni jalb qilish, joriy etish va biznesni samarali boshqarish jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida keytering va outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifati bo'yicha javobgarlikning "Keyter va outsorser, mijoz, sifat eksperti hamda integratsiyalashgan" (K&AMEI) modeli ilmiy asoslangan hamda xizmatlarini rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari xarajatlarini 1,36 marta kamaytirish imkoni yaratilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keytering xizmatlaridan foydalanish sifati 25 foizga va samaradorligi esa 20 foizga oshirishda "XaSaSi" (xavf, samaradorlik va sifat) modeli asosida iqtisodiy baholash uslubi yeti takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini 15 foizga kengaytirgan va sifatini oshirishning metodikasi aniqlandi va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha kompleks baholashni hisobga olgan holda outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni asoslash metodologiyasi va konseptual asoslari ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekonometrik tadqiqotlar asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan keytering va outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish istiqbollarning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan hamda xarajatlar summasini 20,5 foizga qisqartirgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

keytering va outsorsing tushunchalarining xususiyatlari nuqtai nazaridan aniqlik kiritildi - undan foydalanish maqsadi, keytering va outsorsing xizmatlari tasnifi mintqa doirasida va boshqaruv turlari: strategik, taktik, operativ; keytering va outsorsing tashkilotlariga qo'yiladigan talablar va ushbu xizmatlarni bozorda mikroiqtisodiy darajada (ichki muhit) va makro;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keytering va outsorsing xizmatlaridan foydalanishda risklarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, outsorsingdagi tavakkalchilik tushunchasiga uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash nuqtai nazaridan aniqlik kiritildi va xavflarning oldini olish tasnifi ishlab chiqildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan pudratchini tanlashda keytering va outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi taklif etildi va outsorsing shartnomalarini bajarish bosqichlari bo'yicha farqlanadigan maqsad, vazifalar, prinsiplar, funksiyalar va boshqaruv usullarini o'z ichiga oladigan ilmiy takliflar asoslandi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning metodikasi aniqlandi va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha kompleks baholashni hisobga olgan holda outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning konseptual asoslari ishlab chiqildi;

outsorsing xizmatlari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan outsorsing xizmatlarini 2025-2030-yillarga mo'ljallangan rivojlantirish istiqbollarning prognoz ko'rsatkichlarining amaliyotda qo'llanilishi natijasida xarajatlar summasini 20,5 foizga qisqartirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari mablag'larining tejalishiga erishilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan ilmiy-uslubiy va ilmiy-metodologik yondashuvlar, tahlil usullari va ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar

tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xorijlik yetakchi iqtisodchi olimlarning keytering va autsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning metodikasi hamda iqtisodiy baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha maqsadli dasturlar va yo'l xaritalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarni boyitish imkonini beradi.

Amaliy ahamiyati nuqtai nazaridan autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlarida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmasida ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqada autsorsing xizmatlarini iqtisodiy baholash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, autsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida "keytering" tushunchasining iqtisodiy mazmuni autsorsing xizmat ko'rsatishning innovatsion uslublarini diversifikatsiyalash orqali xarajatlarni minimallashtirish, samaradorlik va sifatni oshirishni ta'minlovchi ijobiy institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usullarni jalb qilish, joriy etish va biznesni samarali boshqarish jarayoni nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan mualliflik tarifi "Innovatsion iqtisodiyot" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" nomli darsliklar matnini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 04-martdagi 55-sonli, 2025 yil 09 iyuldagi 258-sonly buyruglari, ro'yxatga olish raqamlari 513749- sonli va 709548 - sonli guvohnomalari). Tadqiqot ishi natijalari "Innovatsion iqtisodiyot" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" fanlari mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida ilmiy-iqtisodiy darajada (tashqi muhit) tarqatish shartlari shakllantirildi; asoslangan keytering va autsorsing xizmatlaridan foydalanish sifati bo'yicha javobgarlikning "Keyter va autsorser, mijoz, sifat eksperti hamda integratsiyalashgan" (KA&MEI) modeli bo'yicha taklifdan Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 13-avgustdagi

06-02/3-3362-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotda qo'llanilishi natijasida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari xarajatlarini 1,36 marta kamaytirish imkoni yaratildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keytering xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishda "XaSaSi" (xavf, samaradorlik va sifat) modeli asosida iqtisodiy baholash uslubiyotini takomillashtirish taklifidan Qashqadaryo viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 13-avgustdagi 06-02/3-3362-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida mintaqadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keytering va outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifati 25 foizga va samaradorligi esa 20 foizga oshirildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning metodikasi aniqlandi va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha kompleks baholashni hisobga olgan holda outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni asoslash metodologiyasi va konseptual asoslari taklifidan Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 13-avgustdagi 06-02/3-3362-son ma'lumotnomasi). Natijada mintaqadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish qamrovini 15 foizga kengaytirish imkoni yaratildi;

Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekonometrik tadqiqotlar asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan keytering va outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish istiqbollari bo'yicha ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 13-avgustdagi 06-02/3-3362-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi dasturni ishlab chiqishda foydalanilgan va prognoz ko'rsatkichlarining amaliyotda qo'llanilishi natijasida xarajatlar summasini 20,5 foizga qisqartirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari mablag'larining tejalishiga erishilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash imkoni yaratildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ushbu taklif va fikrlar mintaqadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barqaror rivojlanishi hamda 3-6 yoshdagi bolalarni qamrab olish darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.


**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan oliy o'quv yurtlarida "Innovatsion infratuzilma", "Mintaqaviy iqtisodiyot" kabi fanlarning ishchi o'quv dasturlarini takomillashtirishda va ta'lim berish jarayonida foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 7 ta ilovadan iborat bo'lib, tarkibida 42 ta statistik va tahliliy jadval, 34 ta rasmni olgan holda, 246 betda bayon etilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Autorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida keytering va autorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida o'rganishga bag'ishlangan nazariy yondashuvlar, autorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini aniqlashning metodologik va metodik asoslari, autorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston mintaqalarida qo'llash masalalari yoritilgan.



**1-rasm. Keytering xizmat turlari<sup>7</sup>**

Keytering (inglizcha “kater” – yetkazib bermoq, xizmat qilmoq so‘zidan olingan) – umumiy keytering tarmog‘i bo‘lib, bundan tashqari xizmatlar ko‘rsatishdan foydalanish. Bu sohada ishlovchi kompaniyalar oldindan tayyorlangan taomlarni yetkazib berish, dasturxon tuzash va tozalashni taklif qilish ma‘nolarini bildiradi. Keytering deganda, keyteringni tashkil etish, asbob-uskunalarini ijaraga olish va istalgan joyda biron-bir tadbirda ofitsiant va oshpaz sifatida ishlash uchun keng qamrovli xizmatlar tushuniladi.

<sup>7</sup> Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.

Keytering va outsorsing ta'rifi bo'yicha mavjud to'rtta: tashkiliy, boshqaruv, iqtisodiy va kasbiy malaka yondashuvlarini o'rganish asosida, dissertantning fikricha, keytering va outsorsing deganda, xarajatlarni minimallashtirish, sifatni ta'minlash (yaxshilash) va belgilangan muddatlarga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo'lmagan funksiyalarini bajarishni o'z ichiga olgan va biznes hamkorlikning yumshoq (soft) xizmat turi, deb ta'riflandi. Oddiy qilib aytganda, keytering – bu mijozning mehmonlarini ovqatlantirishi mumkin bo'lgan ochiq xizmat turi. Bunda 3 xizmat turini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish joyi va keytering jarayonini tashkil etish usuliga qarab, uning amaliy turlari ajratildi (2-rasm).

<p><b>Xizmatlarni tashkil etish bo'yicha</b></p> <p>Bino ichida keytering Binodan tashqari keytering Tayyor taomlarni yetkazib berish</p>
<p><b>Taqdim etilayotgan xizmatlar turi bo'yicha</b></p> <p>Tadbir yoki vaqtli keytering Ofis yoki joylarda keytering Transportda keytering Oshpazlik taomlari</p>
<p><b>Mijozning talabiga ko'ra</b></p> <p>VIP- keytering Ommaviy keytering</p>

## **2-rasm. Jarayonlarini tashkil etish usuliga qarab keytering turlari<sup>8</sup>**

Tahlillar asosida xizmat ko'rsatish jarayonida mustaqil keyteringning ijtimoiy, sanoat, bolalar, qo'shimcha dam olish, ekologik vegetrial va tadbirlar keyteringlari kabi turlarini outsorsing faoliyatida qo'llash va joriy etish mumkinligi asoslandi. Mustaqil keytering turlarining “mobil restoran” harakatchanligi, keytering kompaniyasining javobgarligi, buyurtmalarning xilma-xilligi, qo'shimcha variantlarni tashkil etish bilan bog'liq afzal tomonlari aniqlashtirilgan.

<sup>8</sup> Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.

Tomonlarning o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan keytering va outsorsing loyihalarini amalga oshirish doirasida quyidagi hamkorlik shakllarini ajratish tavsiya etilgan:

- mustaqil keytering va outsorsing faqat muayyan haq evaziga muayyan xizmatlar ko‘rsatish haqida ijrochi va buyurtmachini o‘zaro bog‘laydigan kelishuv;

- kapitalda ishtirok etuvchi outsorsing, bunda bir tomondan aksiyalarning ma‘lum bir ulushini ishlarni sifatli bajarish yoki uzoq muddatli hamkorlikni kafolatlash maqsadida boshqa tomonga berish ko‘zda tutiladi;


- keytering va outsorsing tegishli tashqi buyurtmalarni bajarishda hamda ta‘sischi korxonadan ichki vazifalarni, ya‘ni insourcing operatsiyalarini bajarishdagi qo‘shma korxonadan xizmatlari ulushi.

Keytering va outsorsing faoliyatini mamlakatimiz iqtisodiyotida qo‘llash sohalari bo‘yicha dissertatsiyada 6 ta guruh: 1) ta‘lim; 2) tibbiyot; 3) qishloq xo‘jaligi; 4) sanoat; 5) transport; 6) infratuzilma sohasiga ajratilgan holda o‘rganildi.

Autsorsingdan foydalanishning maqsadi shundan iboratki, **birinchidan**, kichik korxonalar va tashkilotlarda barcha xodimlarni to‘liq ish haqi bilan ta‘minlashning imkonini yo‘qligi sababidan outsorsing xizmatlaridan doimiy ravishda emas, balki ayrim hollarda va kerakli vaqtda foydalanilishi, ularning ma‘lum bir davrda bir marta kerak bo‘lishi, ikkala holatda ham, ya‘ni chetdan bir martalik yoki davriy ishlarni bajaradigan tashkilotni yollash ancha foydalidir. **Ikkinchidan**, agar yirik korxonalar va tashkilotlarda foyda keltirmaydigan, lekin texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan, asosiy bo‘lmagan ko‘plab bo‘linmalar mavjud bo‘lsa, bu umumiy hisobotga salbiy ta‘sir qilishining oldini oladi. **Uchinchidan**, korxonalar va tashkilotlarning asosiy bo‘lmagan faoliyat uchun yetarli mablag‘ ajrata olmasa, u mehnat bozorida raqobatlasha olmasligi mumkin, shuning uchun xodimlarni topish ko‘pincha muammoga aylanadi. **To‘rtinchidan**, korxonalar va tashkilotlarning ofis xodimlarini yoki ularning ish haqi xarajatlarini kamaytirish kerak. Shuningdek, buxgalteriya bo‘limi xodimlarning o‘rtacha ish haqining rejalashtirilgan darajasiga hisobot berishi yoki erishishi kerak. Shu sababli tozalash ishlari, oshxonalar va transport xizmatlari kabi kam haq to‘lanadigan toifalarni outsorsing qilish maqsadga muvofiq. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, korxonalar va tashkilotlarning ayrim yoki to‘liq funksiyalari outsorsing tashkilotiga toshiriladi.

Bular buxgalteriya hisobini olib borish, kadrlarni tanlash va jalb qilish, ish haqini hisoblash, soliq operatsiyalarini bajarish, asbob-uskunalar va mexanizmlarga texnik xizmat ko‘rsatish, korxonalar va tashkilotlarda ish yuritishning amal qilishini ta‘minlash, dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, barcha tarjimalarni amalga oshirish, xavfsizlik choralari bilan ta‘minlash, loyihalarni ishlab chiqish va dizayn, reklamalarni yaratish, logistika xizmatini yo‘lga qo‘yish, binolarni tozalash va obodonlashtirish, insonlarni va yuklarni tashish jarayonlarini tashkil qilishdan iborat.

Tadqiqotchining fikricha, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun iqtisodiy samara ixtisoslashgan korxonalaridan professional xizmatlarni izlashning asosiy motividir, chunki autsorsing korxonalariga tegishli sifat va maqbul xarajatlar bilan muayyan turdagi xizmatlarni taqdim etishga ixtisoslashgan (3-rasm).



**3-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun autsorsing xizmatlaridan foydalanishning obyektiv shartlari<sup>9</sup>**


Olib borilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing loyihalarining samaradorligi va sifatini baholashda ikki guruh: dinamik va dinamik bo'lmagan usullardan foydalanish mumkinligi asoslandi (4-rasm). Ular tomonidan eng ko'p ishlatiladigan elementlar boshqaruv usullari, dasturiy ta'minot paketlari va boshqaruv maslahatchilarining yordami edi.

Xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish bo'yicha loyihalar soni ma'lum darajada dastlabki maqsadlarga va tanlangan metodologiya qancha vaqt samarali bo'lishiga bog'liq edi. Ko'pincha, muvaffaqiyatsiz loyiha menejerlar qiyin qarorlar qabul qilishni xohlamasliklari, ular keskin o'zgarishlar va xodimlarni qisqartirish bilan bog'liq zarbalardan qochishni xohlashlari bilan bog'liq.

O'zbekistonda iqtisodiyotning turli sohalarida autsorsing xizmatlari sifatini oshirish amaliyoti endigina tarqala boshladi, shuning uchun bu ilmiy izlanish

<sup>9</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

sohadagi tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan foydali va zarur bo‘ladi. Ushbu turdagi xizmatni real hayotda amaliy qo‘llash uchun outsorsingdan foydalanishning dastlabki shartlari va zarur shartlarini tushunish kerak. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida outsorsingning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u kompaniyalarga yanada moslashuvchan bo‘lish, paydo bo‘lgan qiyinchilik va muammolarga o‘z vaqtida javob berish, ilg‘or tajribalardan foydalanish, raqobatbardoshlikka erishish, korxonaning ishonchliligini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini kuchaytirishni taqozo etadi. Outsorsingdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqida gap ketganda, shuni esda tutish kerakki, boshqa boshqaruv vositalarida bo‘lgani kabi, barcha tashkilotlar uchun yagona algoritim mavjud emas va har bir holatda undan foydalanish samaradorligi kompaniyaning individual xususiyatlariga bog‘liq.



**4-rasm. Autorsing loyihalarining samaradorligi va sifatini baholash usullari<sup>10</sup>**

Bizning fikrimizcha, outsorsing – istalgan bir mikro, mezo, makro darajada tashqi resurslarni jalb qilgan holda tashkilot, mintaqa, davlat darajasida biror tovar yoki xizmatni yetkazib berish, amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir.


Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda outsorsing xizmatlarinig autstaffing, autstakking, autspleyment, eksternalizatsiya, insorsing, reinsorsing, kooperatsiya kabi keng ommalashgan turlari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida, asosan, kooperatsiya va outsorsingning sof holdagi variantlari qo‘llanilmoqda.

Dissertatsiyaning “**Autorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni tadqiq etishning uslubiy yondashuvlari**” deb nomlangan ikkinchi

<sup>10</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

bobida outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash usullari, outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni tahlil etishning tizimli yondashuv uslubiyoti hamda outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifati uchun javobgarlikning “K&AMEI” modelida baholash xususiyatlari tadbiq etilgan.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlariga outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash usullari, ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o‘ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Dissertasiyada mazkur tizimning to‘rtta: iqtisodiy, nazorat (boshqarish), xodimlarni boshqarish va mahsulot sifatini boshqarish mexanizmlari tavsiya etiladi (5-rasm).



Eslatma: XaSaSi - xavflar, samaradorlik va sifat

### 5-rasm. Outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmining tarkibiy elementlari<sup>11</sup>

Tadqiqotda “Mexanizm konsepsiyasi”ni shakllantirishga turli yondashuvlarni o‘rganish asosida dissertant tomonidan outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi haqidagi qarashlar taqdim etilgan. Ular outsorsingning maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan mijoz tashkilotlarning mantiqiy harakatlari tizimi, boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va usullarini aniqlash, outsorsing tashkilotini tanlash, shartnoma tuzish va uning barcha bosqichlarida minimal risklar bilan bajarilishini nazorat qilish, maxsus tashkiliy tuzilma – vakolatlar markazi yordamida ko‘rsatiladigan xizmatlarning yuqori samaradorligi va sifatidan iboratdir.

<sup>11</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo mintaqasining tumanlar kesimida MTTning mulk obyektiga ko‘ra tahlil o‘tkazildi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Autsorsing bilan shug‘ullanuvchi korxonaga topshirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini baholashning taxminiy shkalasi<sup>12</sup>**

<b>Baho</b>	<b>Interval (umumiy masshtabdagi ulushi, foiz)</b>	<b>Sifat</b>
<b>Baho 1</b>	0-50	Autsorsing sifati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat standartiga minimal darajada mos keladi
<b>Baho 2</b>	51-80	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing sifat standarti ma’lum darajada buzilgan holda taqdim etiladi. Buni osongina tuzatish mumkin
<b>Baho 3</b>	81-90	Autsorsing sifati umumiy hisobda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifat standartiga mos keladi
<b>Baho 4</b>	91-100	Autsorsing sifati maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifat standartlariga to‘liq mos keladi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda Qashqadaryo mintaqasida to‘rt turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari: davlat, nodavlat, davlat - xususiy sherikchilik asosida va oilaviy MTTlar mavjud. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, oxirgi vaqtlarda oilaviy va xususiy sherikchilik asosidagi MTTlar rivojlanib bormoqda. Tahlillar asosida Qashqadaryo viloyatida autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmi holati rivojlanish bosqichida ekanligini aniqlashtirilgan.


Autsorsingga topshirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifatini o‘lchash tartibini quyidagi asosiy bosqichlar bilan tavsiflash mumkin: 1) baholash holatini aniqlash; 2) ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish; 3) xususiyatlarni o‘lchash uchun shkalani shakllantirish; 4) taqqoslash asosini tanlash va asoslash; 5) yagona ko‘rsatkichlarni yig‘ish.

Asosiy bosqichlardan biri bu taqqoslash bazasini tanlash, individual va o‘rtacha hisob-kitoblar bo‘lishi mumkin. O‘rtacha baholar me‘yoriy, indeksli, istiqbolli, ideal, reagnostik yoki prognostik ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan va boshqalar sifatida tuzilishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmati sifatini baholash shkalasi sifatida 0 dan 1 gacha yoki 0 dan 100 gacha bo‘lgan oraliqda normallashtirilgan shkalalardan foydalanish, keyinchalik baholashning yakuniy natijalarini to‘rt darajali intervalli koeffitsiyentlari shkalaga qisqartirish tavsiya etiladi (1-jadval).

<sup>12</sup> Manba. Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi metodologiyani sinovdan o‘tkazish doirasida mijozning mutaxassisleri ishtirokida taklif qilingan 9 ta ko‘rsatkich bo‘yicha xuddi shunday tadqiqot o‘tkazildi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu jarayon juda mashaqqatli va outsorsing qilish rejalashtirilgan har bir funksiya uchun qiymatlarni aniqlashdan iborat bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining sifat omillari va sifat ko‘rsatkichlariga juda ham e’riborli bo‘lishimiz lozim. Bu omillar va ko‘rsatkichlar quyida (6–7-rasmlarda) keltirilgan. Taqqoslash natijasida qaysi funksiyalarni va qay darajada outsorsing qilish maqsadga muvofiqligini aniqlaydigan eng oqilona nisbatni topish mumkin.



**6-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining sifat omillari<sup>13</sup>**

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining sifatini ularni baholash imkoniyati nuqtai nazaridan outsorsing xizmatlari sifatining barcha tarkibiy qismlarini ikkita ko‘rsatkich guruhiga bo‘lish mumkin. Bunda miqdoriy (o‘lchash uchun), obyektiv baholashni hamda sifat (moddiy), subyektiv baholashni talab qiladi (6-rasm).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va outsorsing xizmatlarining pudratchisi o‘rtasidagi muzokaralar jarayonida outsorsingchi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati bo‘yicha nizolar paydo bo‘lishi mumkin. Dissertantning

<sup>13</sup> Manba. Muallif ishlanmasi.

fikricha, bu jarayon xizmat sifati bo'yicha shartnomada belgilanishi, ya'ni aks ettirilishi kerak. Ushbu hujjat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun kutilgan natijalarni belgilaydigan autsorsing xizmatlari uchun sifat nazorati ko'rsatkichlarining tartiblangan tizimidir. Sifat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va autsorser o'rtasidagi birinchi aloqa paytidan boshlab shartnomaning tugashigacha bo'lgan barcha aloqalarning talabi bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari shartnoma tuzishda, shuningdek, autsorsing xizmatlaridan foydalanish uchun muzokaralar jarayonida juda muhim nuqta – bu javobgarlikni his etishdir.



**7-rasm. Autsorsing xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari<sup>14</sup>**


Olib borilgan tadqiqotlar natijasida autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifati bo'yicha javobgarlik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model to'rt qismdan iborat bo'lib, autsorser mijoz, uchinchi tomon va integratsiyalashgan model ishlab chiqildi. Keltirilgan autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifati uchun javobgarlik modellari bo'yicha ba'zi fikrlarni keltirib o'tmoqchimiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari shartnoma tuzishda, shuningdek, autsorsing xizmatlaridan foydalanish uchun muzokaralar jarayonida juda muhim nuqta – bu javobgarlikni his etishdir. Shu sababli autsorsing xizmatlar unumdorligi va sifati bo'yicha javobgarlik "K&AMEI" modeli taklif etilgan (8-rasm). Mazkur model keytering va autsorsing faoliyati sifatini to'rt tomonlama nazorat qilishga asoslanadi. Bu omillar quyidagilar:

**1. Sifatni keyter va autsorser nazorat qiladi [K&A].** Maktabgacha ta'lim tashkiloti buyurtmachi sifatida keyter va autsorserga maksimal mumkin bo'lgan xavf va javobgarlikni, shu jumladan yaratilayotgan tizimning sifati bilan bog'liq bo'lganlarni o'tkazishga intiladi. Shu munosabat bilan mijoz vazifani sifat jihatidan

<sup>14</sup> Manba. Muallif ishlanmasi.

aniq shakllantirishi, yakuniy natijani baholash mezonlarini ishlab chiqishi va ularni outsorserga yetkazishi kerak bo‘ladi.

**2. Sifatni mijoz nazorat qiladi [M].** Maktabgacha ta’lim tashkilotini mijoz sifatida faqat bir narsa qiziqtiradi: yakuniy natija uning kutganlariga javob berishi kerak. Outsorser mijozga xizmat ko‘rsatadi va mijozning o‘zi kelajakda aniq ishlash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish yoki ichki standartlarga e’tibor qaratish zarurligini hal qiladi.



**8-rasm. Outsorsing xizmatining samaradorligi va sifati bo‘yicha javobgarlik “K&AMEI” modeli<sup>15</sup>**


**3. Sifat ekspert tomonidan nazorat qilinadi [E].** Turli xil vazifalarni turli ijrochilarga topshirish orqali xavflarni kamaytirishga harakat qilishingiz mumkin: biri rivojlanadi, ikkinchisi esa sifatni nazorat qiladi. Mustaqil sifat ekspertidan foydalanish, agar kompaniyada tasdiqlangan sifat menejmenti jarayoni mavjud bo‘lmasa, samarali bo‘lishi mumkin.

**4. Sifatni integratsiyalashgan asosda nazorat qiladi [I].** Integratsiyalashgan outsorsing modeli outsorsingning barcha afzalliklarini olishni xohlaydigan, lekin sifat va mahsuldorlikni o‘zlari nazorat qilishga tayyor bo‘lmagan va hamkorlarga qaram bo‘lishni istamaydigan tashkilotlar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti – buyurtmachi va outsorser bilan butun mas’uliyatni birlashtiradi. Outsorser taqdim etilayotgan xizmat kelishilgan talablarga javob berishini ko‘rsatib, ishning birinchi bosqichini taqdim etadi.

<sup>15</sup> Manba. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning “**Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini uch omil metodologiyasi, keytering xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishda “XaSaSi” modeli asosida iqtisodiy baholash uslubiyati, autsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotlar asosida autsorsing xizmatlari sohasida o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan uchta asosiy toifa: xavflar (Xa), samaradorlik (Sa) va sifat (Si) ning ustunligi aniqlandi. Ushbu toifalarning uyg‘un birligi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning “XaSaSi” (xavf, samaradorlik va sifat) modeli ishlab chiqildi. Mazkur model toifalarining qiymatini uch bosqichda baholash tavsiya etiladi (9-rasm).



**9-rasm. “XaSaSi” ko‘rsatkichlarini autsorsing bosqichlari bo‘yicha baholash algoritmi<sup>16</sup>**

“XaSaSi” modelining har bir elementini miqdoriy baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

**I. Xavfni baholash.** Uslubiy yondashuvlarda autsorsing jarayonida umumiy nosozliklar xavfi [N] ikkita komponentga ega ekanligi aniqlandi: a) mumkin bo‘lgan texnologik muvaffaqiyatsizlik [T]; b) autsorserning malakasi xavfi [M]. Texnologik

<sup>16</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

nosozliklar va malakani hisobga olgan holda umumiy xavfni baholash uchun har bir xizmat turi kontekstida tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilgan (2-jadval).

2-jadval.

**Autsorsing jarayonidagi nosozliklar xavfining umumiy hisobi<sup>17</sup>**

Autsorsing turi	Autsorsingdagi xavflar			Hudud turidagi xavflar [1:2]
	Texnologik muvaffaqiyatsizlik (T)	Malakalar (M)	Muvaffaqiyatsizlik $X_a = T \setminus M$	
Hududda ma'lumot texnologiyalari	2,950	3,333	0,885	past
Buxgalteriya hisobi xizmatlari	2,350	3,267	0,719	past
Reklama xizmatlari	2,000	1,567	1,276	yuqori

**II. Samaradorlikni baholash.** Uslubiy qismda ikkita summani solishtirish taklif qilinadi: autsorsing bahosi (AB) va ichki birlikni saqlash xarajatlari (IB). Agar birinchi ko'rsatkich ikkinchisidan past bo'lsa, u holda autsorsing xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha autsorsing loyihasi mijoz uchun iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval.

**Jarayondagi samaradorlik darajasini autsorsing xizmatlari uchun va samaradorlik zonasining turini aniqlash<sup>18</sup>(ming so'm)**

Autsorsing turi	Autsorsing bahosi (AB)	Ichki bo'limdagi baho (IB)	Samaradorlik koeffitsiyenti $S_a = AB/IB$	Zona turi samaradorligi
Hududdagi xizmatlar ma'lumot texnologiyalari	438 000	467 980	1,000	o'rta
Buxgalteriya hisobi xizmatlari	510 000	488 540	1,043	past
Reklama xizmatlari	108 720	615 632	0,177	yuqori

Bu yerda  $S_a$  koeffitsiyent quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

1.  $S_a > 1$ . Mijoz uchun iqtisodiy foyda yo'q, chunki autsorsing tashkilotining xizmatlari narxi o'zining ichki xarajatlaridan yuqori. Bu holda hal qiluvchi vaqtda ish sifatini va ularni amalga oshirishning tezkor vaqtini ta'minlash mumkin. Ikkinchisi, maxsus muzokaralarni talab qiladi.

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>18</sup> Muallif hisob-kitobi.

2.  $Sa=1$ . Xarajatlar tarkibi tengdir. Shunga qaramay, tomonlarning xizmatlari foydasiga “ortiqcha vazn” sifatli komponent bo‘lishi mumkin.

3.  $Sa<1$ . Ushbu parametr vositachi yuqori ixtisoslashgan outsorsing tashkilotlar xizmatlaridan foydalanishning aniq iqtisodiy foydasini ko‘rsatadi.

**III. Sifatni baholash.** Outsorsing jarayonida sifat darajasi ( $Sa$ ) outsorser inson omili bahosi ( $I$ ) va outsorserning modiy omili bahosi ( $M$ ) nisbati bilan hisoblanadi (4-jadval).

**4-jadval.**

**Autsorsing jarayonida sifat darajasini [ $S_d$ ] har xil turdagi outsorsing xizmatlari va turlari bo‘yicha baholash<sup>19</sup>**

Autsorsing turi	Autsorser inson omili bahosi (I)	Autsorserning modiy omili bahosi (M)	Sifat darajasi $S_d=I/M$	Sifatning turlari
Hududdagi xizmatlar ma’lumot texnologiyalari	3,333	2,467	1,351	yuqori
Buxgalteriya hisobi xizmatlari	3,267	1,367	2,390	yuqori
Reklama xizmatlari	1,567	1,800	0,871	past

Keytering xizmat turlari va outsorsingni boshqarishning o‘ziga xos turi bo‘yicha “XaSaSi” modelining ko‘rsatkichlari darajasi va outsorsing faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos turi 5-jadvalda keltirilgan.

**5-jadval.**

**Xizmat turlari bo‘yicha XaSaSi tizimining ko‘rsatkichlari darajasi va outsorsingni boshqarishning o‘ziga xos turi<sup>20</sup>**


Autsorsing turi	XaSaSi ko‘rsatkichlari			Boshqaruv turi
	Xatarlar	Samaradorlik	Sifat	
Hududdagi xizmatlarning ma’lumot texnologiyalari	past	o‘rta	yuqori	muzokaralar jarayoniga nisbatan samaradorlik
Buxgalteriya hisobi xizmatlari	past	past	yuqori	muzokaralar jarayoniga nisbatan samaradorlik
Reklama xizmatlari	yuqori	yuqori	past	ma’lumotlar bilan yechimlar outsorser yoki boshqa bozordagi kompaniyalar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy mexanizmining funksiyalari maktabgacha ta’lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida outsorsing xizmatlarini ko‘rsatish uchun tashkiliy asoslarni yaratish va outsorsing xizmatlarini

<sup>19</sup> Muallif hisob-kitobi.

<sup>20</sup> Muallif hisob-kitobi.

ko'rsatish sifatini nazorat qilishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida. Outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy mexanizmining asosiy elementlari. Qashqadaryo viloyatida MTTda outsorsing samaradorligi va sifatining tashkiliy mexanizmi misolida berilgan (10-rasm).




**10-rasm. Qashqadaryo viloyatida MTTda outsorsing samaradorligi va sifatining tashkiliy mexanizmi<sup>21</sup>**

Dissertatsiya tadqiqotlari natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini

<sup>21</sup> Manba. Muallif tomonidan "mexanizm" tushunchasining mohiyatini aniqlashda tizimli-funksional yondashuvdan foydalanish asosida tuzilgan.

oshirish uchun muallif tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan (11-rasmda).



**11 - rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotiy siklining turli bosqichlarida outsourcing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi<sup>22</sup>**

<sup>22</sup> Manba. Muallif tomonidan “mexanizm” tushunchasining mohiyatini aniqlashda tizimli-funksional yondashuvdan foydalanish asosida tuzilgan.

Dissertatsiyaning “**Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning konseptual asoslarini takomillashtirish va istiqbollari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasi, autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning konseptual asoslari hamda autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni istiqbollashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat kontekstida autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifati metodologiyasining yetarli darajada asoslanmaganligi bilan bog‘liq jiddiy muammolar mavjud. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida autsorsingning konseptual metodologiyasi zarur, shunda u butun mamlakatimiz uchun samarali bo‘ladi. Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishda eng asosiy omillardan biri, muallif fikricha, autsorsing xizmatlarini qo‘llash jarayonida mijoz va autsorsing kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomaga asosan, quyidagi 9 ta tamoyilga tayangan holda ish tutish lozim:

1. Tashkilot faoliyatini kuchli tomonlarga yo‘naltirish;
2. Strategik maqsadlarga e‘tibor berish;
3. Autsorsing shartnomasi taraflarining manfaatlarini to‘liq hisobga olish;
4. Autsorsing bilan munosabatlarda mijozning yuqori darajada ishtirok etishini ta‘minlash;
5. Autsorsing funksiyalarini bajarish uchun xavfni iqtisodiy baholash;
6. Autsorsing funksiyalari masalalarini hal qilishda jarayonli yondashuvdan foydalanish;
7. Autsorsing jarayonlarini boshqarishda tizimli yondashuvdan foydalanish;
8. Iqtisodiy tahlil asosida autsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;
9. Autsorsing ishini baholash imkonini beruvchi tanlangan ko‘rsatkichlarni o‘lchash, tahlil qilish va takomillashtirish.

Autsorsingning samaradorligi va sifati bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanishi mumkin. Dissertatsiyada quyidagi ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqilgan:

**1. Samaradorlik ko‘rsatkichlari:** CMR (cost minimization rate) – xarajatlarni minimallashtirish darajasi, indeks, PGR (profit growth rate) – foydaning o‘shish darajasi, indeks, LFS (level of financial stability) - moliyaviy barqarorlik darajasi, indeks.

**2. Sifat ko‘rsatkichlari:** CSL (customer satisfaction level) – mijozlarning qoniqishi, indeks, LCF (level of consistency of functionality) – funksionallikning izchillik darajasi, indeks, EFL (error-free activity level) – xatosiz faoliyat darajasi, indeks.

**3. Psixologik kapital ko‘rsatkichlari** (faoliyatda jamoa (xodimlar)ning psixologik qoniqishi): OWL (optimality of workloads) – ish yuklamalarning optimallik darajasi, indeks, EML (employee motivation level) – xodimlarni rag‘batlantirish darajasi, indeks, RLM (reliability level of the medium) – ichki jamoaviy muhitning ishonchlilik darajasi, indeks.

Ushbu ko‘rsatkichlar yordamida autsorsing xizmatining umumiy rivojlanish integral ko‘rsatkichini hisoblash mumkin. Bu yerda barcha tashkil etuvchilar indeks

ko'rsatkichlar ekanligidan kelib chiqib, quyidagi formula bo'yicha hisoblash taklif etiladi:

$$IK = \left( (CMR \cdot PGR \cdot LFS)^{\frac{1}{3}} * (CSL \cdot LCF \cdot EFL)^{\frac{1}{3}} * (OWL \cdot EML \cdot RLM)^{\frac{1}{3}} \right)^{\frac{1}{3}} \quad (1)$$

Tadqiqot jarayonida, Qashqadaryo viloyatida autsorsing tizimini baholash ko'rsatkichlari 2010-2022-yillar davomida hisoblab chiqilgan (6-jadval) bo'lib, modelning adekvatlik ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan.

**6-jadval.**

**Qashqadaryo viloyatida autsorsing tizimini baholash ko'rsatkichlari <sup>23</sup>**

Davr	Ko'rsatkichlar							
	CMR	PGR	LFS	CSL	LCF	EFL	OWL	EML
2010	0,180	0,030	0,240	0,430	0,495	0,275	0,500	0,200
2011	0,185	0,040	0,246	0,470	0,525	0,285	0,520	0,215
2012	0,190	0,046	0,248	0,482	0,540	0,290	0,540	0,225
2013	0,193	0,048	0,250	0,493	0,570	0,325	0,570	0,245
2014	0,197	0,046	0,251	0,511	0,580	0,345	0,568	0,265
2015	0,205	0,058	0,257	0,531	0,585	0,360	0,581	0,270
2016	0,210	0,059	0,259	0,542	0,625	0,395	0,597	0,280
2017	0,213	0,068	0,261	0,550	0,640	0,475	0,601	0,295
2018	0,219	0,075	0,272	0,582	0,660	0,495	0,623	0,325
2019	0,224	0,079	0,291	0,589	0,675	0,510	0,632	0,315
2020	0,282	0,095	0,310	0,603	0,690	0,555	0,639	0,335
2021	0,295	0,110	0,321	0,624	0,695	0,595	0,642	0,365
2022	0,314	0,135	0,351	0,641	0,710	0,640	0,691	0,380
2023	0,335	0,194	0,372	0,682	0,730	0,685	0,713	0,385
2024	0,373	0,223	0,411	0,692	0,780	0,730	0,782	0,390

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlarini prognozlashtirishda ko'p omilli empirik hamda vaqtli qator modellardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblangan. Bunda, omillar va natija quyidagi parametrlar bilan belgilangan:

$X_1$  – maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, birlikda;

$X_2$  – 3-6 yoshgacha bolalar soni, kishi;

$X_3$  – maktabgacha ta'limga qamrov, foizda;

$X_4$  – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar soni, birlikda;

$X_5$  – ta'lim-tarbiyaga sarflangan xarajatlar, mln. so'm;

$X_6$  – maktabgacha ta'limga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln. so'm;

$X_7$  – maktabgacha ta'lim tashkilotlariga umumiy ovqatlanish uchun xarajatlar, mln. so'm;

$Y$  – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlari, mln. so'm.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi model ishlab chiqildi:

$$U = -12,998 + 2,53 * u_1 - 0,81 * u_2 + 0,31 * u_3 + 1,42 * u_4 \quad (2)$$

Mazkur modelning koeffitsiyentlari statistik ahamiyatli hamda umumiy

<sup>23</sup> Jadvallardagi ma'lumotlar muallif tomonidan mustaqil hisob-kitob qilingan

monandlik ko'rsatkichlari 7-jadvalda keltirilgan.

Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlarining prognoz parametrlari hisobining ko'p variantlilik asosida ishonchlilik darajasini oshirish uchun natijaviy indikatorning vaqtli qator modeli tuzildi.

7-jadval.

**Qashqadaryo viloyatida MTTda autsorsing xizmatlari va unga ta'sir etuvchi omillarning miqdoriy ko'rsatkichlari, natural logarifmda<sup>24</sup>**

Yillar	MTTda autsorsing xizmatlari, mln. so'm	Maktabgacha ta'lim qamrovi, foizda	MTTdagi tarbiyachilar soni, birlikda	MTTda ta'lim-tarbiyaga sarflangan xarajatlar, mln. so'm	Maktabgacha ta'limga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln. so'm
	$U=\ln(Y)$	$u_1=\ln(X_3)$	$u_2=\ln(X_4)$	$u_3=\ln(X_5)$	$u_4=\ln(X_6)$
2003	5,0225	3,1822	8,2244	10,1111	9,2108
2004	5,0661	3,2027	8,2556	9,9714	9,2264
2005	4,8964	3,2149	8,2561	9,8545	9,1126
2006	4,6924	3,1822	8,2754	9,7675	8,9979
2007	4,7536	3,1905	8,2335	9,6742	9,0247
2008	4,6022	3,2542	8,1455	9,5884	8,8344
2009	4,5362	3,2542	8,0750	9,5347	8,7442
2010	3,9518	3,3569	8,1259	6,8996	8,7325
2011	4,2338	3,3638	8,0756	6,6645	8,8088
2012	4,6625	3,4045	8,0395	8,8638	8,8649
2013	5,8460	3,4308	7,9804	8,7595	8,9645
2014	7,0258	3,4308	7,6511	10,9498	9,4542
2015	8,0909	3,5582	7,6573	10,9432	9,8193
2016	8,2038	3,5807	7,7165	10,8945	10,1000
2017	8,2643	3,5779	7,8212	10,6989	10,4146
2018	8,2594	3,6028	8,0456	10,4518	10,5821
2019	8,8538	3,6864	8,1645	10,5757	10,8090
2020	8,9522	3,6507	8,9201	10,5573	10,5030
2021	9,0709	3,9279	8,9491	10,6036	10,8920
2022	9,1868	3,9945	8,9610	10,8040	11,0525
2023	9,2764	4,0448	8,9904	10,8989	11,1014
2024	9,4419	4,1218	9,0392	10,9897	11,1887

$$Y_t = 6,839 + 0,9115 * Y_{t-1} + 0,974 * \theta_{t-1} + 0,999 * \theta_{t-2} \quad (3)$$

Ushbu model (3) asosida Qashqadaryo viloyati MTTda autsorsing xizmatlarining o'rta muddatli (2025-2030-yillar) prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (8-jadval).

<sup>24</sup> Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**8-jadval.**

**Qashqadaryo viloyati MTTda outsorsing xizmatlarining o‘rta muddatli  
(2025–2030-yillar) prognoz ko‘rsatkichlari<sup>25</sup>**

Prognoz yillari	Ko‘rsatkichlar					MTTda outsorsing xizmatlari, mln. so‘m	
	Maktab- gacha ta‘lim qamrovi, foizda	MTT dagi tarbiya- chilar soni, birlikda	MTTda ta‘lim- tarbi- yaga sarflan- gan xarajat- lar, mln. so‘m	Maktab- gacha ta‘limga kiritilgan investitsi- yalar hajmi, mln. so‘m	MTTda outsorsing xizmatlari, mln. so‘m		
					<i>Ko‘p omilli nochi- ziqli emperik model bo‘yicha</i>	<i>Vaqtli qator modeli bo‘yicha</i>	
2025	62,08	8627	55972,49	86615,23	15937,71	16190,41	
2026	66,72	8922	57492,31	97105,14	20091,28	20195,95	
2027	70,39	9350	58716,83	107313,95	25238,47	26208,13	
2028	75,03	9940	60884,26	118811,47	32318,25	31993,28	
2029	79,54	10242	62795,37	131594,76	40132,55	39475,05	
2030	85,36	10610	65254,58	145915,21	49159,84	48036,69	
O‘rtacha o‘shish sur‘ati, foizda	<b>6,58</b>	<b>4,22</b>	<b>3,12</b>	<b>10,99</b>	<b>25,3</b>	<b>24,3</b>	
2030/ 2024 nisbat, barobar	<b>1,38</b>	<b>1,26</b>	<b>1,10</b>	<b>2,02</b>	<b>3,90</b>	<b>3,81</b>	

Modellashtirish usuli yordamida amalga oshirilgan prognozlashtirish natijalari Qashqadaryo viloyatida 2030-yilga borib maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlari hajmi real qiymatda (2010-yil narxlar indeksiga nisbatan) 49159,84 mln. so‘mga, o‘rtacha o‘shish sur‘ati 25,3 foizga teng bo‘lib, 2024-yilga nisbatan 3,9 barobarga ortishi ta‘minlanadi. Kelgusi 2025-2030-yillarda Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlari ko‘lami jadal sur‘atlarda o‘shib boradi.

### XULOSA

Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

<sup>25</sup> Eviews dasturi yordamida hisoblangan qiymatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1. Tadqiqot natijalarining nazariy asosi sifatida “keytering” va “outsorsing” tushunchalarining mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi, boshqaruv tamoyillari aniqlandi, outsorsing tashkilotlarini tanlash, shartnomani tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining mantiqiy harakatlari tizimi sifatida maxsus mexanizm ilmiy asoslandi. “Keytering” va “Autsorsing” tushunchalarining mohiyatini aniqlashning ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish asosida dissertatsiya tadqiqoti muallifi ushbu masalani tadqiq qilib, outsorsing deganda, tashkilot tomonidan ilgari mustaqil ravishda amalga oshirilgan ba’zi funksiyalar yoki faoliyatni tashqi tashkilotga o‘tkazish, deb tushuniladi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish xususiyatlari shakllantirildi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, asosiy va yordamchi xizmatlarda qo‘llaniladigan outsorsing xizmatlari turlarini hisobga olgan holda outsorsing xizmatlarini tasniflashga mualliflik yondashuvi taklif etildi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining biznes jarayonlari aniqlandi.

3. Tadqiqotlar natijasida outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini aniqlashning metodologik va metodik asoslari, shu jumladan outsorsing xizmatlarini quyidagi yo‘nalishlarda guruhlash amalga oshirildi: tarmoqlar bo‘yicha; qamrov darajasi bo‘yicha; vaqt omili tufayli; geografik jihatdan; boshqaruv turi bo‘yicha. Bunday guruhlash outsorsing xizmatlarining tizimli ravishda tasnifi ko‘rsatilgan tizimli yo‘nalishlarini BBBB modeli asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qisqa muddatli xarajatlarini kamaytirishga emas, balki butun biznes samaradorligida sezilarli yutuqlarga erishishga intilishini va joriy investitsiyalarga emas, balki uzoq muddatli natijalarga yo‘naltirilishini nazarda tutishi ishlab chiqildi.

4. Outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmi haqidagi qarashlarini taqdim etilish natijasida outsorsingning maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan mijoz tashkilotlarning mantiqiy harakatlari tizimi, boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va usullarini aniqlash, shartnoma tuzish va uning barcha bosqichlarida minimal risklar bilan bajarilishini nazorat qilish, maxsus tashkiliy tuzilma - vakolatlar markazi yordamida ko‘rsatiladigan xizmatlarning yuqori samaradorligi va sifati degan xulosaga kelindi.

5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirish zarurati ilmiy asoslandi. Outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning qiymat usuli tanlandi. Bu ichki birlikni saqlash xarajatlari va outsorsing xarajatlarini solishtirish imkonini berdi. Bunday taqqoslashning mumkin bo‘lgan variantlari ko‘rsatilgan va uning o‘ziga xos turi (to‘liq yoki qisman outsorsing) bilan outsorsing xizmatlari foydasiga qaror qabul qilish to‘g‘risida ilmiy asoslangan xulosa chiqarildi.

6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsingda xizmatlar sifati uchun javobgarlikning “K&AMEI” modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda keytering va outsorsing faoliyati sifati to‘rt tomonlama: 1) keyter va outsorser tomonidan (K&A),

2) mijoz tomonidan (M), 3) ekspert tomonidan (E); 4) integratsiyalashgan (I) nazorat turlariga asoslanadi.

7. Tadqiqotlar asosida outsorsing xizmatlari sohasida o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan uchta asosiy toifa: xavflar (Xa), samaradorlik (Sa) va sifat (Si) ning ustunligi aniqlandi. Ushbu toifalarning uyg‘un birligi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida keytering xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning “XaSaSi” (xavf, samaradorlik va sifat) modeli ishlab chiqildi. Mazkur model toifalarining qiymatini baholash uslubi va uch bosqichi tavsiya etildi.

8. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini baholash metodologiyasi aniqlandi va outsorsing xizmatlaridan foydalanuvchi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar taklif etildi.

9. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanishning iqtisodiy samarasini baholash maktabgacha ta‘lim tashkilotlari korxonasining o‘z resurslaridan foydalangan holda va outsorsing kompaniyasi yordamida tanlangan biznes jarayonlarni amalga oshirishda xarajatlarni taqqoslashga asoslanadi, degan xulosaga kelindi.

Yuqoridagi metodologiyani sinovdan o‘tkazish doirasida mijozning mutaxassisleri ishtirokida taklif qilingan 9 ta ko‘rsatkich bo‘yicha xuddi shunday tadqiqot o‘tkazildi.

10. Outsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishda, muallif fikricha, eng asosiy omillardan biri outsorsing xizmatlarini qo‘llash jarayonida mijoz va outsorsing kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomaga muvofiq, dissertatsiyada ishlab chiqilgan 9 ta tamoyilga tayangan holda ish tutish lozimligi asoslandi.

11. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tomonidan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi.

12. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida korrelyatsion tahlil asosida amalga oshirilgan outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirishning 2025-2030-yillarda rivojlantirish istiqbollari ekonometrik modellashtirish orqali ishlab chiqildi. Prognozlashtirish natijalari mintaqada 2030-yilga borib maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlari hajmi real qiymatda (2010-yil narxlar indeksiga nisbatan) 37350,19 mln. so‘mga, o‘rtacha o‘sish sur‘ati 28,4 foizga teng bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 3,5 barobarga ortishi ta‘minlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ЭРГАШЕВА НАСИБА РАХМАТУЛЛАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА УСЛУГ АУТСОРСИНГА**

**08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

**САМАРКАНД – 2025**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2024.3.DSc/Iqt771.**

Диссертационная работа выполнена в Каршинском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.sies.uz](http://www.sies.uz)) и на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный консультант:</b>	<b>Навруз-Зода Бахтиёр Негматович</b> доктор экономических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич</b> доктор экономических наук, профессор <b>Арабов Нурали Уралович</b> доктор экономических наук, профессор <b>Матякубов Умиджон Рахимович</b> доктор экономических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Термизский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней Dsc.03/25.12.2024.I.18.01 при Самаркандском институте экономики и сервиса “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_.

Адрес: 140100, город Самарканд, улица Амира Темура, 9. Тел.: (+99866) 233-19-84; факс: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

С диссертационной работой можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского института экономики и сервиса (зарегистрирована за номером \_\_\_\_). Адрес: 140100, город Самарканд, улица Амира Темура, 9. Тел.: (+99866) 233-19-84; факс: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Автореферат диссертации распространен « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(протокол реестра № \_\_\_\_\_ от « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**М.Э. Пулатов**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**Ш.О. Кувандиков**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**М.Т. Алимова**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Развитие аутсорсинга и кейтеринга как одного из сегментов рынка услуг становится современным трендом в мировом экономическом пространстве. Одним из основных способов минимизации государственного вмешательства в экономику считается обеспечение дошкольных образовательных организаций услугами кейтеринга и аутсорсинга. “В условиях глобализации и информатизации мировой экономики 50-60% долгосрочных контрактов государственного и негосударственного сектора реализуются посредством аутсорсинговых услуг, предполагающих привлечение внешних ресурсов. В 2021 году объём мирового рынка кейтеринговых и аутсорсинговых услуг в сфере IT составил 414 млрд долл. США, а в 2022 году достиг почти 1 трлн долл. США. В частности, объём рынка аутсорсинговых услуг ХХR составил 362 млрд долл. США, что на 14,2 % больше, чем в 2021 году”<sup>26</sup>. В настоящее время особую актуальность приобретает совершенствование более удобных и эффективных механизмов организации функций и обязательств государственного сектора на основе аутсорсинговых услуг. На национальном и международном уровнях реализуются научные исследования, направленные на разработку путей и перспектив развития эффективных и конкурентоспособных экономических механизмов посредством социального аутсорсинга.

Сектор аутсорсинговых услуг в глобальном экономическом пространстве функционирует в широких масштабах и в динамичном режиме. Его развитие оказывает существенное влияние на конкурентоспособность предприятий и организаций (компаний), а также на уровень эффективности всех организационных систем, используемых в процессе производства высококачественной продукции и предоставления услуг. Эффективное использование аутсорсинговых услуг предоставляет предприятиям возможность оптимизировать свою деятельность посредством передачи второстепенных функций и корпоративных ролей специализированным аутсорсинговым компаниям и сосредоточения усилий на основном направлении деятельности. Современные формы организации кейтеринга и аутсорсинга в дошкольных образовательных организациях, основные тенденции на мировом рынке кейтеринговых и аутсорсинговых услуг и в его географии, инновационные подходы и использование цифровых технологий при организации кейтеринга и аутсорсинга, методологические и концептуальные основы повышения эффективности и качества

---

<sup>26</sup> Источник. Беленькая Я.И. Развитие аутсорсинга в мировой экономике. <https://core.ac.uk/download/pdf/>.

аутсорсинговых услуг относятся к числу приоритетных направлений, проводимых в данной области научных исследований.

На современном этапе развития Нового Узбекистана особое внимание уделяется вопросам повышения качества и эффективности деятельности дошкольных образовательных организаций посредством их перевода в частный сектор, а также более полного удовлетворения потребностей населения в социальных услугах. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы также определены приоритетные задачи по: "...дальнейшему повышению эффективности охвата дошкольными образовательными организациями, широкому внедрению дошкольных образовательных организаций на основе государственно-частного партнёрства, увеличению доли частного сектора в экономике"<sup>27</sup>. Кроме того, в Узбекистане развитие кейтеринговых и аутсорсинговых услуг рассматривается как одна из крайне актуальных и важных задач в сфере организации здорового питания в системе дошкольного образования<sup>28</sup>, питания пациентов, стирки белья, дезинфекции медицинских изделий, медицинской диагностики в системе здравоохранения, глобальной цифровой экосистемы, а также в области ускоренного развития бизнес-процессов аутсорсинга. Реализация задач в данном направлении определяет актуальность научных исследований, направленных на изучение путей обеспечения качественного обслуживания дошкольных образовательных организаций на основе развития кейтеринговых и аутсорсинговых услуг.

Данная исследовательская работа в определенной степени послужит реализации задач, поставленных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан, касающихся мер по дальнейшему развитию негосударственных образовательных услуг, таких как №УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг.", №УП-158 от 11 сентября 2023 года "О Стратегии Узбекистан-2030", №ПП-3305 от 30 сентября 2017 года "Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан", №ПП-3651 от 5 апреля 2018 года "О мерах по дальнейшему стимулированию и развитию системы дошкольного образования", №ПП-3621 от 9 сентября 2017 года "О мерах по коренному совершенствованию системы дошкольного образования", №ПП-3276 от 15 сентября 2017 года "О мерах по дальнейшему развитию деятельности по оказанию негосударственных образовательных услуг", №ПП-4312 от 8 мая 2019 года "Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года"; в

---

<sup>27</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 гг." // <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>28</sup> <https://bugun.uz/2022/09/22/> Выявлены серьезные недостатки при переходе детских садов Узбекистана на аутсорсинг

постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №391 от 13 мая 2019 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности дошкольных образовательных организаций”, №6 от 10 января 2020 года “Об утверждении Положения о порядке оказания услуг аутсорсинга в организациях, входящих в структуру Министерства здравоохранения Республики Узбекистан”, №1 от 16 января 2025 года “О мерах по совершенствованию порядка организации здорового питания методом аутсорсинга в государственных дошкольных образовательных организациях”, а также в других нормативно-правовых документах, касающихся данной отрасли.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики.** Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

